ERKIN A'ZAM IJODIDA EMOTSIONAL-EKSPRESSIV SO'ZLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Xodjaqulova Yulduz
Buxoro davlat universiteti
Filologiya fakulteti 3-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24220930

Annotatsiya. Mazkur maqolada Erkin A'zam hikoyalarida qo'llangan emotsional-ekspressiv birliklarning lingvopoetik xususiyatlari "Ta'ziya" va "Anoyining jaydari olmasi" hikoyalari misolida tahlil qilinadi. Yozuvchi ijodida emotsional-ekspressivlikni yuzaga chiqaruvchi leksik, frazeologik, fonetik va sintaktik vositalar, ularning qahramon ruhiyati, muallif munosabati hamda badiiy tasvirni shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, jonli so'zlashuv nutqi, undovlar, takrorlar, tovush cho'zilishi, kinoya va baholovchi birliklarning matn mazmuniga ta'siri ochib beriladi.
Kalit so'zlar: Erkin A'zam, emotsional-ekspressivlik, lingvopoetika, badiiy matn, ekspressiv leksika, undov, kinoya, frazeologizm, so'zlashuv nutqi, obrazlilik.

LINGUOPOETIC FEATURES OF EMOTIONALLY EXPRESSIVE WORDS IN ERKIN A'ZAM'S WORKS

Abstract. This article examines the linguopoetic features of emotionally expressive units used in Erkin A'zam's short stories, focusing on the works "Ta'ziya" and "Anoyining jaydari olmasi". It explores the lexical, phraseological, phonetic, and syntactic devices that convey emotional expressiveness in the writer's works, as well as their role in revealing the characters' inner worlds, expressing the author's attitude, and shaping artistic imagery. Furthermore, the article highlights the impact of colloquial speech, interjections, repetitions, sound lengthening, irony, and evaluative expressions on the meaning and artistic effect of literary texts.
Keywords: Erkin A'zam, emotional expressiveness, linguopoetics, literary text, expressive vocabulary, interjection, irony, phraseological unit, colloquial speech, imagery.

ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ЭКСПРЕССИВНОЙ ЛЕКСИКИ В ТВОРЧЕСТВЕ ЭРКИНА АЗАМА

Аннотация. В данной статье анализируются лингвопоэтические особенности эмоционально-экспрессивных единиц, используемых в рассказах Эркина Азама, на примере произведений «Ta'ziya» и «Anoyining jaydari olmasi». Рассматриваются лексические, фразеологические, фонетические и синтаксические средства выражения эмоциональной экспрессии в творчестве писателя, их роль в раскрытии внутреннего мира персонажей, выражении авторского отношения и формировании художественного образа. Кроме того, раскрывается влияние живой разговорной речи, междометий, повторов, протяжного произношения, иронии и оценочных единиц на содержание художественного текста.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ключевые слова: Эркин Азам, эмоциональная экспрессивность, лингвопоэтика, художественный текст, экспрессивная лексика, междометие, ирония, фразеологизм, разговорная речь, образность.

Badiiy adabiyot tilining muhim xususiyatlaridan biri unda so‘zning nafaqat nominativ, balki emotsional va estetik vazifada ham namoyon bo‘lishidir. Kundalik muloqotda muayyan predmet, hodisa yoki harakatni ifodalashga xizmat qiladigan so‘z badiiy matnda qahramonning ruhiy holatini, muallifning voqelikka munosabatini, nutq vaziyatining ta’sirchanligini ifodalashi mumkin. Shu jihatdan emotsional-ekspressiv birliklar badiiy asar tilining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Emotsionallik so‘z yoki ifodaning his-tuyg‘u bilan bog‘liq ma’no qatlamini anglatsa, ekspressivlik uning ta’sirchanlik, obrazlilik va ifoda kuchini oshiruvchi xususiyatidir. Bu ikki hodisa ko‘pincha bir-birini to‘ldiradi. Biroq ularni yuzaga chiqaruvchi vositalar faqat alohida emotsional bo‘yoqdor so‘zlar bilan cheklanmaydi. Tovushlarning cho‘zib talaffuz qilinishi, so‘z takrori, undovlar, murojaat shakllari, kinoyali jumlalar, frazeologik birikmalar va jonli so‘zlashuv unsurlari ham badiiy matnda ekspressivlikni kuchaytiradi.

O‘zbek nasrida o‘ziga xos uslubga ega bo‘lgan Erkin A’zam hikoyalarida qahramonlar nutqining tabiiyligi, xalqona ifodalar, kinoya va yumor, ruhiy kechinmalarning ixcham, ammo ta’sirchan tasviri alohida e’tiborga loyiq. Adib so‘zning lug‘aviy ma’nosi bilan birga uning kontekstda hosil qiladigan qo‘shimcha ma’no imkoniyatlaridan ham samarali foydalanadi. Ushbu maqolada yozuvchining “**Anoyining jaydari olmasi**” hamda “**Ta’ziya**” hikoyalari asosida ana shu xususiyatlar tahlil qilinadi.

“**Anoyining jaydari olmasi**” hikoyasida emotsional-ekspressivlik, ayniqsa, Ramazon obrazining nutqi orqali yorqin namoyon bo‘ladi. Qahramonning o‘ziga xos talaffuzi, jo‘shqin murojaatlari, xalqona iboralari va noodatiy so‘z qo‘llashi uning xarakterini individuallashtiradi. Hikoyaning boshida Ramazonning **“Chantrimore-e!”** deya hayqirishi diqqatni tortadi. Bu ifodada tovush cho‘zilishi, undov ohangi va murojaatning o‘ziga xos shakli qahramonning jo‘shqin tabiatini ko‘rsatadi. Unga javoban aytilgan **“Kalamakatore”** so‘zi esa ikki do‘st o‘rtasidagi shartli, o‘ziga xos muloqot an’anasini yuzaga chiqaradi. Bu birliklar oddiy salomlashish vazifasidan kengroq ma’no kasb etib, qahramonlar o‘rtasidagi yaqinlik va ko‘p yillik munosabatni ifodalaydi.[1]

Ramazon nutqidagi **“Senginaning jonginangga tegishga!”, “Ha, jo‘ramdan-da, jo‘rajonimdan-da!”** kabi murojaat shakllari ham emotsional-ekspressiv xususiyatga ega. Ularda erkalash, samimiylik va hazil aralash yaqinlik seziladi. Ayniqsa, **“jo‘rajonim”** shaklidagi erkalash ma’nosi qahramon nutqining xalqonaligini kuchaytiradi. Biroq bu murojaatlarning ta’siri faqat ijobiy hissiyot bilan chegaralanmaydi: hikoya qahramoni Ramazonning sho‘xligi va betinim harakatlaridan ba’zan charchaydi, uning samimiyligini qadrlasa-da, ayrim qiliqlaridan hijolat tortadi. Shu sababli bir xil nutqiy birliklar turli vaziyatlarda turlicha hissiy munosabatni yuzaga chiqaradi.

Adib fonetik ekspressivlikdan ham o‘rinli foydalanadi**. “O‘-o‘rtasiga!”, “Ana-a!...”, “Yo‘-o‘q”** kabi shakllarda unli tovushlarning cho‘zilishi qahramon nutqiga jonlilik bag‘ishlaydi. Masalan, **“Ana-a!... Yur, jo‘rajon, bir portretga tushaylik!”** jumlasida tovush cho‘zilishi kutilmagan quvonch va hayajonni kuchaytiradi. **“O‘-o‘rtasiga!”** ifodasida esa joyni alohida ta’kidlash, gapga jo‘shqinlik berish maqsadi seziladi. Bunday fonetik vositalar yozma matnda og‘zaki nutq ohangini qayta yaratib, qahramonning ovozi va kayfiyatini o‘quvchi tasavvurida jonlantiradi.

[1] Erkin A’zam. Ertak bilan xayrlashuv. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 62-b

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Hikoyada Ramazonning o'ziga xos lug'ati ham muhim badiiy vosita hisoblanadi. Muallif uning tramvayni **"uch tiyinlik"**, taksini **"pulyutar",** restoranni **"registron"** deb atashini qayd etadi. Bu birliklar qahramonning individual nutqiy olamini, so'z yasash va nomlashdagi o'ziga xosligini ko'rsatadi. Ular adabiy til me'yoridan chekinish sifatida emas, balki obraz yaratishga xizmat qiluvchi individual nutqiy xususiyat sifatida baholanishi lozim. Ramazonning atrofdagi voqelikni o'zicha nomlashi uning erkin, betakror va biroz betayin xarakterini ochishga yordam beradi.[2]

Yozuvchi frazeologik va obrazli ifodalardan foydalanib, qahramon ruhiyatini ham ta'sirchan ifodalaydi. **"G'ashingizni qo'zg'amoqchidek"** birikmasi suhbatdoshning ataylab asabga tegishga urinayotganini anglatadi. Tergovchining **"— Sizni qamoqqa olamiz, og'ayni!"** degan gapiga **"Ko'z oldim qorong'ilashib ketdi. "** jumlasi esa kutilmagan xavf-xatar qarshisida yuzaga kelgan ruhiy iztirobni ifodalaydi. **"La'nati Ramazon! O'zing tushgan chohga meni ham tortmoqchi bo'libsan-da? Nomard, chayqovchi!"** degan ichki nutqda qahramonning g'azabi, ranjishi va ishonchsizligi ketma-ket kuchayib boradi. Bu yerda undov gaplar, baholovchi so'zlar va ritorik savol birgalikda emotsional zo'riqishni yuzaga chiqaradi.[3]

Erkin A'zamning **"Ta'ziya"** hikoyasida emotsional-ekspressivlik, avvalo, qahramonlarning o'zaro munosabati va nutqiy vaziyatga mos tanlangan so'zlar orqali yuzaga chiqadi. Hikoyada oilaviy suhbat, xotira, kinoya va ijtimoiy munosabatlar tasviri davomida so'zlarning hissiy bo'yoqdorligi yaqqol seziladi. Masalan, asar boshidagi **"Jo-o-on! Bo'ldimi?"** jumlasida tovushning cho'zib talaffuz qilinishi oddiy so'roq mazmunidan tashqari, so'zlovchining sabrsizligi va noroziligini ham ifodalaydi. Bu o'rinda ekspressivlik alohida so'zning lug'aviy ma'nosida emas, balki uning fonetik shakli va nutq vaziyatida namoyon bo'ladi. Muallif tovush cho'zilishi orqali qahramonning ichki munosabatini izohsiz, tabiiy tarzda ochib beradi. [4]

Hikoyadagi **"Nega shapka kiymaysan, nimaga sha'ma bu, maqsadingni bilamiz, deb sho'ri quriganlarni ko'p ko'rganmiz."** gapidagi **"sho'ri quriganlarni"** birikmasi ham emotsional bo'yoqdorligi bilan ajralib turadi. Ushbu ifoda muayyan davrda bosim va ta'qibga uchragan kishilarga nisbatan achinish, hamdardlik ma'nosini yuzaga chiqaradi. Demak, mazkur birikmaning ta'sir kuchi faqat uning lug'aviy tarkibiga emas, balki tarixiy-ijtimoiy kontekstga ham bog'liq. Yozuvchi xalq tilida shakllangan iborani qahramon nutqiga olib kirish orqali davr ruhini va insoniy kechinmalarni birgalikda ifodalaydi.

"Ta'ziya" hikoyasida baholovchi birliklar ham muhim lingvopoetik vazifa bajaradi. Jumladan**, "Qiyomat odam edi"** jumlasi Salim Qaror obraziga nisbatan ijobiy bahoni ifodalaydi. Otaning **"Qiyomat ham gapmi!"** tarzidagi javobi esa ushbu bahoni kuchaytirib, suhbatning emotsional ta'sirini oshiradi. "Qiyomat" so'zining bu kontekstdagi qo'llanishi lug'aviy ma'nodan uzoqlashib, insonning fazilatlarini yuqori darajada baholovchi mubolag'ali ifodaga aylanadi. Shu tariqa oddiy suhbat tarkibidagi ikki jumla qahramon haqidagi umumiy tasavvurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Asarda salbiy baho va kinoyani ifodalovchi birliklar ham ko'p uchraydi. Masalan, **"Ukkag'ar", "enag'ar", "Ahmoq, nodon!", "Hah, mug'ambir!"** kabi ifodalar qahramonlarning muayyan shaxs yoki

---

[2] Erkin A'zam. Ertak bilan xayrlashuv. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 64-b

[3] Erkin A'zam. Ertak bilan xayrlashuv. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 69-b

[4] Erkin A'zam. Ta'ziya (hikoya) https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/erkin-a-zam-1950/erkin-a-zam-ta-ziya-hikoya

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

vaziyatga munosabatini ochadi. Biroq bunday birliklarning emotsional qiymati har doim bir xil emas: ularning ma'nosi kim tomonidan, kimga nisbatan va qanday vaziyatda qo'llanishiga qarab o'zgaradi. Xususan, **"Ahmoq, nodon!"** ifodasi hikoyada boshqa shaxsga qaratilgan haqorat emas, balki qahramonning o'ziga nisbatan ichki e'tirozi sifatida namoyon bo'ladi. Bu holat emotsional-ekspressiv birliklarni tahlil qilishda kontekstning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

Yozuvchi **"o'lgudek ishchan"** birikmasi orqali Salim Qarorning mehnatsevarligini kuchaytirib tasvirlaydi. Bu yerda **"o'lgudek"** so'zi harakat belgisining yuqori darajasini ifodalovchi kuchaytirgich vosita sifatida qo'llangan. Biroq mazkur ifoda kontekstda faqat maqtov vazifasini bajarmaydi: qahramonning tinimsiz ishlashi, dam olmasligi va atrofdagilarga bir xilda munosabatda bo'lishi tasviri bilan birga kelib, kinoyaviy ohangni ham yuzaga chiqaradi. Demak, emotsional-ekspressiv ma'no ba'zan bitta so'z doirasida emas, balki butun tasvir va matn mazmuni bilan birgalikda shakllanadi.

Erkin A'zam hikoyalarida emotsional-ekspressiv birliklarning muhim xususiyatlaridan biri ularning kinoya va yumor bilan uyg'unlashuvidir. **"Anoyining jaydari olmasi"** hikoyasida esa Ramazonning **"Hay, hay, men kirmasam kirmayin-u, lekin sen unaqa qila ko'rma — Toshkent shoirsiz qoladi-ya! — deydi u qo'llarini ko'ksiga qo'ygan ko'yi yasama tazarru bilan."** degan gapi yumoristik vaziyatni yuzaga keltiradi. Muallifning "yasama" sifatlovchisi qahramonning samimiylikka o'xshagan, ammo aslida hazilga asoslangan harakatini ochib beradi. Bunda ekspressivlik faqat qahramonning so'zida emas, balki muallifning unga bergan tavsifida ham namoyon bo'ladi.[5]

"Ta'ziya" hikoyasida "qultamitsin" so'zi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Nazir aka qahramonga ichimlikni "dori" sifatida tavsiya qilib, **"— Mana shundan jindakkina otib yuborsang, odam bo'lasan-qolasan. Nima, deysanmi? Talmovsirama. Dori bu, dori — qultamitsin. Qult-qult yutasan — tamo-om, olam guliston!"** deydi. **"Qultamitsin"** shakli odatiy dori nomiga taqlid qilib yaratilgan kulgili, vaziyatga xos birlikdir. Uning ta'sirchanligi so'zning tovush tarkibi, noodatiy yasalishi va nutq vaziyati bilan bog'liq. Bu birlik orqali Nazir akaning hazilkashligi, gapdonligi va suhbatdoshini kuldirish mahorati ochiladi.

Tahlil qilingan ikki hikoya shuni ko'rsatadiki, Erkin A'zam emotsional-ekspressiv vositalarni qahramon xarakterini ochish, nutqni individuallashtirish, voqea-hodisalarga munosabat bildirish va matnning estetik ta'sirini kuchaytirish maqsadida qo'llaydi. Bunda alohida so'zning ma'nosi bilan bir qatorda uning talaffuzi, takrorlanishi, boshqa birliklar bilan birikishi va nutqiy vaziyatdagi o'rni ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Erkin A'zamning **"Anoyining jaydari olmasi"** va **"Ta'ziya"** hikoyalari tahlili adib nasrida emotsional-ekspressiv birliklar badiiy tasvirning muhim lingvopoetik vositasi ekanini ko'rsatadi. Yozuvchi emotsional ta'sirni faqat his-tuyg'uni bevosita ifodalovchi so'zlar orqali emas, balki fonetik cho'zilish, undov, takror, murojaat, frazeologik birikma, kinoya va individual nutqiy shakllar vositasida ham yuzaga chiqaradi.

Demak, Erkin A'zam ijodida emotsional-ekspressiv birliklar oddiy bezak vositasi emas, balki obraz yaratish, ruhiy holatni ochish, muallif munosabatini ifodalash va badiiy matnning ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim lingvopoetik hodisadir. Adibning mahorati shundaki, u xalqona

[5] Erkin A'zam. Ertak bilan xayrlashuv. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007. – 67-b

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

nutq imkoniyatlaridan foydalanib, qahramonlarni o'quvchiga yaqinlashtiradi va ularning ichki dunyosini tabiiy, ishonarli hamda ta'sirchan tarzda namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Erkin A'zam. Ertak bilan xayrlashuv. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007
2. Erkin A'zam. Ta'ziya (hikoya) 1991 https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/erkin-a-zam-1950/erkin-a-zam-ta-ziya-hikoya
3. Yo'ldoshev M., Isaqov Z., Haydarov Sh. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
4. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi. – Toshkent: Fan, 1983
5. Yo'ldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi. – Toshkent: Fan, 2008.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.